O'zbekiston raqamli iqtisodiyotga o'tish bosqichini jadal sur'atlar bilan boshladi. Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrda "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sen Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon bilan "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi tasdiqlandi. "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasining 2-bo'b 3-bo'limida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida korxona ta'minotining barcha bosqichlarini avtomatlashtirish va boshqarishni ta'minlash, shuningdek, bu orqali logistika va harid xarajatlarini qisqartirish belgilangan<sup>[1]</sup>.

Raqamlashtirishga qaratilgan global harakatlar logistika sohasiga ham jadal sur'atlar bilan kirib kelmoqda. Bu esa logistika xizmatlari ko'rsatish jarayonini ham o'zgartirmoqda. "Raqamli" tovarlar harakati, yetkazib berish kanallarida axborotlarni uzatish, ta'minot zanjirining boshqaruv jarayonlari raqamli texnologiyalar asosida o'zgarmoqda.

Bugungi kunda logistika xizmatlari nafaqat tovarlarni yetkzib berishni boshqarish jarayoni, balki foyda marjasini oshirish va biznes muvaffaqiyatini ta'minlashning samarali vositasi hisoblanadi. Logistika xizmatlari samaradorligini oshirish xizmat ko'rsatish jarayonlari va operatsiyalarini avtomatlashtirishni talab qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, iqtisodiyotning real sektorlarida logistika xizmatlari samaradorligini raqamli texnologiyalar asosida oshirishga e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda blockchain texnologiyalardan foydalanilmoxda. Ushbu maqlola esa logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda blockchain texnologiyalardan foydalanish masalasi ko'rib chiqilgan.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli iqtisodiyotga o'tish barcha sohalarni o'zgartirgani kabi, logistika sohasini ham o'zgartirmoqda. Logistika xizmatlari samaradorligiga tashishni tashkil qilish vaqtini qisqartirish va logistika xizmatlari ko'rsatish jarayonining barcha ishtirokchilari savdo vositachilari, transport tashkilotlari, sug'urta va bojxona organlari hamda logistika kompaniyalarining axborot integratsiyasi orqali erishiladi. Ushbu integratsiyani ta'minlash uchun barcha biznes subyektlari o'z faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy qilmoqdalar. Bularning bar-chasi yangi "raqamli logistika" tushunchasining paydo bo'lishiga olib keldi. "Raqamli logistika" tushunchasini Rossiyalik mutaxassislar V.L.Vasilenok, V.V.Negreva, E.I.Aleksashkina, A.I.Kruglova va S.A.Plastunovlar axborotlarni yig'ish, saqlash va uzatish usuli, shuningdek, yuklarni etkazib berish jarayonini optimallashtirishga imkon beruvchi raqamli texnologiyalar sifatida talqin qilishgan [3]. G.V.Bubnova, B.A.Lyovinlar raqamli logistikani transport-logistika tizimini kompleks samaradorligini oshirish va rivojlanishning innovatsion mexanizmi sifatida tadqiq qilishgan [2]. Shegoleva T.V. tomonidan yuqori texnologiyali ishlab chiqarishda ta'minot zanjiri ishonchligini raqamli texnologiyalar oshirishi o'rganilgan [11].

2010-yildan boshlab logistika xizmatlarini ko'rsatishda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari jadallahdi. 2020-yil Negreeva V.V., Zamyatina A.A., Shpakovich D.K., Sharonova A.D. logistikada raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha o'zlarining ilmiy maqolalarini chop ettirishgan [8]. Logistika sohasida blokcheyn texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlari bo'yicha I.V.Kapkin, N.P.Ponomareva [6], yuklarni tashishda bojxona organlari hujjatlarini rasmiylashtirishda blokcheyn texnologiyalardan foydalanish istiqbollari Nigmatulin T.A. ilmiy tadqiqotlarida tadqiq qilingan [9]. Korchagin S.O. ilmiy ishlariда blokcheyn texnologiyalarning rivojlanish kelajagi, uni sohalarda qo'llanilishi o'rganilgan [7].

Mahalliy olimlarimiz ham o'z tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyotning ilmiy nazariy asoslari, raqamli texnologiyalar ularni iqtisodiyot tarmoqlarida qo'llanilishi bo'yicha bir qator ilmiy ishlar olib borishmoqda. Xususan, Gulyamov S.S., Ayupov R.H., Abdullaev O.M., Baltabaeva G.R. tomonidan raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari, ularni "ishlab chiqarish-iste'mol" zanjirida qo'llanilishi, xorij tajribasi o'rganilgan [4].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolani yozishda an'anaviy va aqilli shartnomalarning xususiyatlarini yoritishda taqqoslash usulidan foydalanilgan. Ekspert bahosi usulidan blokcheyn loyihamalarini rivojlanirishda eng yaxshi sharoitga ega mam-lakatlar reytingi tahlilida, blokcheyn texnologiyalarini logistika sohasida qo'llanilishi bo'yicha ilmiy manbalar tizimli va qiyosiy tahlil, statistik tahlil usullaridan foydalanib o'rganilgan. Shuningdek, maqolani yozishda abstrakt-mantiqiy fikrlash, analiz, sintez, mavhumiy-mantiqiy tahlil usullaridan ham foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ayni paytda raqamlashtirish davrida zamонавиу texnologiyalar iqtisodiyotning barcha sohalariga o'z ta'siri ni o'tkazmoqda. Logistika xizmatlari sohasi ham bundan mustasno emas. Elektron aloqa, Internet va elektron hujjat aylanishining paydo bo'lishi logistika xizmatlarini ko'rsatishga yondashuvni tubdan o'zgartirmoqda. Logistika xizmatlari samaradorligini oshirida bir qator raqamli texnologiyalardan foydalanishmoqda. Shu o'rinda raqamli texnologiya tushunchasiga to'xtalib o'tamiz. Raqamli texnologiya deganda qisqa vaqt ichida turli muammolarni hal qilishga imkon beruvchi ma'lumotlarni kodlash va uzatishning maxsus usullaridan foydalanadigan tizim tushuniladi.

Logistika ta'minot zanjirida juda ko'plab biznes subyektlari: savdo, transport sug'urta tashkilotlari, bojxona organlari, logistika kompaniyalari hujjat almashadilar. Buyurtmalar shakkantiriladi, yuboriladi va burtmala-rga ishlov beriladi. Ta'minot zanjiri ishtirokchilari katta ma'lumotlarni bir birovlariga yetkazishadi. Ta'minot zanjiri ishtirokchilari o'rtafigi ma'lumotlar almashinuvini soddalashtirish, ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash va xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish uchun logistikada raqamli texnologiyalardan foydalanilmoqda. Logistika xizmatlari samaradorligini oshirish uchun foydalanilayotgan raqamli texnologiyalardan biri – bu blokcheyndir. Blockcheyndan foydalanish kompaniyadan o'z faoliyati haqida kerakli ma'lumotlarni raqamlashtirishni talab qiladi.

Blokcheyn texnologiyasi (ing. Blockchain so'zma-so'z tarjima qilinganda "bloklar zanjiri") – bu doimiy bloklar zanjiri bo'lgan ma'lumotlarni saqlash usulidir. Bu bloklarda qayd etilgan tranzaktsiyalarni tekshirilishi mumkin bo'lgan tarzda yozib oladigan tarmoq serverlari o'rtafiga taqsimlangan umumlashtirilgan hisob hisoblanadi. Bu texnologiya taqsimlangan daftar texnologiyasining bir turi. Blokcheyn texnologiyasi mijozlar, mahsulotlar va yetkazib bervchilar haqidagi barcha ma'lumotlarni saqlaydigan ommaviy va o'zgarmas kitobni taqdim etadi. An'anaviy ma'lumotlar bazalaridan farqli o'laroq, blokcheyn texnologiyasidagi ma'lumotlarni o'zgartirib, uchirib bo'lmaydi. Faqat yangi ma'lumotlarni qo'shib borish mumkin.



Logistika sohasidagi blokcheyn – bu ishning ishonchliligi va shaffofligini oshirish uchun mo'ljallangan vosita hisoblanadi. Blokcheyn hujjalardagi kelishmovchiliklarning oldini oladi va etkazib berish tezligiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Blockcheynidan foydalanadigan ta'minot zanjirining barcha ishtirokchilari hujjalarning yagona shaklidan foydalanadilar va unga umumiy kirish huquqiga ega bo'ladi. Har qanday o'zgarishlar o'chirilmaydigan yoki o'zgartirilmaydigan yangi bloklar sifatida saqlanadi. Bunday ma'lumotlar bazasiga kirish har qanday kelishmovchiliklarni tezda hal qiladi.

Ta'minot zanjiri ishtirokchilari qancha ko'p bo'lsa, ular o'rtasida axborot va hujjat almashish murakaab bo'ladi. Yuk egalari yukni tashish paytida doimiy ravishda yuk harakatini kuzatib bora olmaydi. Shuning uchun kontrabanda va firibgarlik kabi hodisalar mayjud. Hujjalarni qayta ishlash va bojxonada ruxsat olish bilan vaziyat murakkablashadi. Blockcheyn logistika xizmatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan barcha omillarni engishga yordam beradi. Logistikada blokcheyn texnologiyasining afzallikkari quyidagilardan iborat:

- transport xarajatlarini kamaytirish;
- axborotni soxtalashtirishning oldini olish;
- keraksiz va ortiqcha vositachilarni jalb qilmaslik;
- noto'g'ri belgilash yoki hujjalardagi nomuvofiqqliklarning oldini olish;
- yagona ma'lumot almashish imkoniyatini yaratish;
- hujjalarni qayta ishlash vaqtini qisqartirish.

Blokcheyn texnologiyasi nafaqat yuk operatsiyalarining shaffofligini ta'minlash va ta'minot zanjirining barcha ishtirokchilari uchun xavflarni kamaytirish imkonini beradi, balki kompyuter dasturi tomonidan boshqariladigan "aqli shartnomalar"ni tuzishga ham imkon beradi.

Blokcheyn bir vaqtning o'zida bir nechta joyda tranzaktsiyalarning raqamli reestrini yaratish, yuritish va qayd etish imkonini beradi. Umuman olganda, blokcheyn – bu faqat pul operatsiyalari bilan ishlaydigan texnologiya, ammo hozir bu texnologiya o'zarobog'langan ma'lumotlar bloklari mayjud bo'lgan har qanday sohada qo'llanilishi mumkin. So'nggi paytlarda blokcheyn logistikada butun ta'minot zanjiri bo'ylab yuk operatsiyalarning shaffofligini, xavflarni kamaytirishni, elektron hujjat aylanishiga o'tishni va boshqa raqamli texnologiyalardan foydalanishni ta'minlaydigan vosita sifatida tobora ko'proq foydalanilmoqda. Shu bilan birga, yuqori darajadagi axborot xavfsizligi hamda shaxsiy va tijorat ma'lumotlarini himoya qilish ta'minlanadi.

Blokcheyn texnologiyasining asosiy tamoyili taqsimlangan tarmoqda saqlanadigan axborot bloklaridan foydalanish hisoblanadi. Bloklardagi ma'lumotlar qayta ishlanadi, tekshiriladi, ma'lumotlar va tranzaktsiyalarning kuzatilishini ta'minlaydi va o'zgarishsiz qoladi. Shunday qilib, ma'lumotlarga faqat barcha ishtirokchilarning roziligi bilan o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Shaffoflikka jarayonda ishtirok etmagan barcha tashqi tomonlardan ma'lumotlarni yashirish orqali erishiladi.

Shuningdek, blokcheyn texnologiyasi "aqli shartnomalar" – bitimlar tuzishga imkon beradi. Ular bo'yicha majburiyatlarini kuzatish va bajarish kompyuter dasturi tomonidan tekshiriladi. Ushbu ikkita texnologiya birgalikda qo'llanilganda, shartnomalar shaffof va barcha ishtirokchilar tomonidan boshqarilishi mumkin bo'ladi va ularagi ma'lumotlar o'zgarmasdir. Aqli shartnomalar nizolarni avtomatik hal qilish usullaridan foydalanishga imkon beradi Oddiy shartnomalarni aqli shartnomalar bilan taqqoslash 1-jadvalda keltirilgan.

**1-jadval: An'anaviy va aqli shartnomalarning asosiy xususiyatlarini taqqoslash**

Taqqoslash maydoni	An'anaviy shartnoma	Smart shartnoma
Tranzaksiyani yakunlash sanasi	1-3 kun	daqqaq
Pul o'tkazmasi	qo'lda	avtomatik
Narxi	qimmat	ancha arzon
Mavjudligi	jismoniy	virtual
Imzo	qo'lda yozilgan	virtual (raqamli imzo)
Advokatning mavjudligi	majbuliy	zarur bo'lmasisligi mumkin
Xatolar ehtimoli	mavjud (inson omili)	minimal

Aqli shartnoma ko'plab xususiyatlar bo'yicha an'anaviy shartnomadan ustundir: aqli shartnoma tezroq, arzonroq, aniqroq va qulayroqdir. Chunki uning tuzilishi va bajarilishi virtual tarzda amalga oshiriladi. Blokcheynning eng muhim xususiyati tranzaksiya tizimida haqiqiy vositachilarning yo'qligi, shuningdek, tranzaktsiyalarni tasdiqlovchi va qayd etuvchi tartibga soluvchi organga ehtiyojning yo'qligi hisoblanadi. Bu vositachi rolini tizim, xatolarga yo'l qo'ymaydigan matematik algoritm o'ynashi tufayli sodir bo'ladi. Ushbu texnologiya logistika kompaniyalariga quyidagi afzallikkarni berishi mumkin:



- tovarlarni butun ta'minot zanjiri bo'ylab kuzatib borish imkoniyatini, ya'ni ishlab chiqarish joyidan yakuniy iste'molchigacha;
- yetkazib berish jarayonida barcha ishtirokchilarning roziligidiz o'zgartirishlar kiritishning mumkin emasligi, shuningdek, qo'shimcha xavfsizlikni ta'minlaydigan kriptografiyadan foydalanish;
- qo'lda bajariladigan protseduralarni avtomatiklarga almashtirish orqali jarayonni tezlashtirish;
- nazorat qiluvchi organlar tomonidan tovarlar va yo'lovchilar harakati haqidagi ma'lumotlarni kuzatish imkoniyati;
- mijozlarni asl bo'lмаган qalbaki tovarlar va firibgarlardan himoya qilish;
- tovarlarning kelib chiqishi to'g'risidagi, ularning xususiyatlari va xossalarni ko'rsatgan holda, shuningdek, bojxona to'lovlarni o'z vaqtida to'lash, sug'ortalash va to'lash imkonini beruvchi tovar holati to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida olish.

Shunday qilib, ushbu texnologiyani amalga oshirishda tashkilot nafaqat yuklarni etkazib berish jarayonida ishonchlikni oshirish va xatolarni kamaytirishni, balki blokcheyn tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan jarayonlar samaradorligini oshirishga ham erishadi.

Blokcheyn texnologiyasidan turli maqsadlarda foydalanish mumkin. Asosiyalaridan biri ma'lumotlarni saqlash uchun ishlataladigan statik va dinamik registrlarni saqlashdir. Statik reestriga misol sifatida kompaniya aktivlari (transport vositalari) reestrini keltirish mumkin. Bunday reestr murakkab hisob-kitoblarni talab qilmaydi va unga o'zgartirishlar kamdan-kam hollarda kiritiladi. Dinamik registrlar statik registrlardan ma'lumotlar doimiy ravishda yangilanib turishi bilan farq qiladi. Logistikada dinamik registrlar ko'proq qo'llaniladi. Chunki yuk bilan bog'liq operatsiyalar amalga oshirilganda yuk hajmi, tarkibi va boshqa ma'lumotlar o'zgaradi. Ta'minot zanjirida yangi ma'lumotlar olinadi va reestriga kiritiladi.

Yana bir muhim maqsad logistika sohasida keng qo'llaniladigan "aqlli shartnomalar"ni tuzishdir. Bunday shartnomalar ikkala tomon uchun ham qulaydir. Chunki ular oldindan belgilangan harakat bajarilganda ishga tushiriladigan algoritmik shartlarni o'z ichiga oladi. Masalan, tovar iste'molchiga etkazib berilgandan keyin va bu haqda eslatma blokcheyn (reestr), bajarilgan xizmatlar uchun to'lov avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Yana bir maqsad blokcheyndan to'lov tizimi sifatida foydalanishdir. Bunday holda, ushbu texnologiyaning shubhasiz afzalligi kriptovalyutani to'lov sifatida ishlatish imkoniyatidir.

Logistika kompaniyalari hamkorligi uchun ishlaydigan raqamli blokcheyn platformalari blokcheyn texnologiyasidan foydalanish platformasi vazifasini bajaradi. Raqamli platformalarning asosiy vazifalari yuk va transport vositalari bilan operatsiyalarni qayd etish, to'lov, bojxona, sug'urta va boshqa hujjalarga zarur ma'lumotlarni kiritish, shuningdek, yukning holati va uning joylashgan joyi to'g'risidagi ma'lumotlarni yetkazib berish zanjirining barcha ishtirokchilariga yangilashdan iborat.

Xorijiy yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari ekspertlari o'tkazgan tadqiqotlarga ko'ra, blokcheyn va kriptovalytalar bilan bog'liq loyihalarini rivojlantirish uchun eng qulay shart-sharoitlarga ega mamlakatlar reytingi ishlab chiqilgan. Ekspertlar tomonidan ishlab chiqilgan reytingda mamlakatlarning blokcheyn loyihalarini rivojlantirish, umuman raqamli texnologiyalarni rivojlanishda mamlakatning siyosiy muhiti, raqamlashtirish bilan bog'liq bo'lgan huquqiy muhiti, axborot texnologiyalarning rivojlanishi uchun yaratilgan ifratuzilma holati, blokcheyn va kriptovalyutani tartibga solinishi asosiy mezon sifatida olingan. Ekspertlarning bahosiga ko'ra dunyo bo'yicha blokcheyn loyihalarini rivojlantirish uchun eng yaxshi sharoitga ega mamlakat Estonia davlati ekanligi qayd etilgan (2-jadval).

**2-jadval:** Blokcheyn loyihalarini rivojlantirishda eng yaxshi sharoitga ega mamlakatlar reytingi<sup>1</sup>

Mamlakatning o'rni	Mamlakt	Siyosiy mahitning indeksi	Huquqiy muhitning indeksi	Infratuzilma muhitning indeksi	Blokcheyn va kriptovalyutani tartibga solish indeksi
1	Estoniya	7	7.20	9.31	7.84
2	Avstraliya	7	6.89	9.58	7.82
3	Singapur	7	6.40	9.70	7.70
13	Belarus	7	3.95	8.51	6.49
18	Rossiya	6	2.00	8.72	5.57
21	Xitoy	6	1.75	7.49	5.08
23	Ukraina	6	1.25	7.17	4.81

<sup>1</sup> Негреева В.В., Замятин А.А., Шпакович Д.К., Шаронова А.Д. Использование цифровых технологий в логистике. Научный журнал НИУ ИТМО. Серия Экономика и экологический менеджмент. 2020, №2 94-102 с.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda blokcheyn texnologiyasidan quyidagi yo'nalishlarda foydalananish mumkin:

- Shartnomani tuzish va bajarish.** Blokcheyn texnologiyasidan foydalanish usullaridan biri aqli shartnomalar tuzishdir. Aqli shartnomalar konsepsiysi 1996-yilda Nik Szabo tomonidan kiritilgan. Ammo bu texnologiya faqat 2008-yildan keyin blokcheyn texnologiyasini yaratish natijasida keng tarqaldi. Aqli shartnomalar uchinchi shaxslar, ya'ni vositachilar ishtirokisiz shartnomasi bo'yicha majburiyatlarini tuzish va bajarish imkonini beradi. Shartnomaning har bir bosqichini kuzatish mumkin. Lekin uning bajarilishini bekor qilib bo'lmaydi. Aqli shartnomalarning asosiy maqsadi shartnomasi majburiyatlarini bajarishni tezlashtirish va xarajatlarini kamaytirish, shuningdek, xavfsizlikni oshirish va an'anaviy shartnomalarni tuzishda mavjud bo'lgan darajadan yuqori ishonchlik darajasini ta'minlashdir. Biroq aqli shartnomasi tuzish mumkin bo'lishi uchun shartnomaning barcha shartlarini matematik tarzda tasvirlash kerak.
- Bojxona rasmiylashtiruv.** Yuqorida aytib o'tilganidek, blokcheyn avtomatik hisob-kitoblarni amalga oshirishga imkon beradi. Bajariladigan operatsiyada ishtirok etayotgan shaxslarning cheklangan doirasiga ma'lumot beradi va barcha harakatlar shaffof, tushunarli va qaytarilmasdir. Hozirgi vaqtda bojxona rasmiylashtiruv juda ko'p sonli operatsiyalardan iborat murakkab va ko'p mehnat talab qiladigan jarayondir. Axborotni qayta ishlash faoliyati markazlashtirilgan bo'lib, bu bojxona xodimlarining yuqori ish yuki bilan bog'liq qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Har bir operatsiyaga oz vaqt beriladi, lekin ayni paytda katta miqdordagi hujjalarni tekshirish kerak. Blokcheyn esa bu qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Deklaratsiya qilinishi kerak bo'lgan tovarlarni jo'natuvchi o'zining ochiq kalitida eksport qilinadigan tovar tafsifini, shuningdek, zarur hujjalarni ro'yxatdan o'tkazishi shart. Bojxona deklaratsiyasi foydalanuvchining raqamli deklaratsiyasi uning ochiq kalitida bloklash tizimida ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan e'tiboran taqdim etilgan hisoblanadi. Keyinchalik, tovarlar tekshiriladi va blokcheyndagi ma'lumotlar haqiqiy ma'lumotlar va hujjalarni bilan tasdiqlanadi, bojxona xodimlarining raqamli deklaratsiyasini foydalanuvchining ochiq kalitida tasdiqlash orqali chiqarish to'g'risida qaror qabul qilinadi.
- Logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda blokcheyn texnologiyasidan foydalanish mumkin bo'lgan yana bir yo'nalish – bu yuk tashishdir. Ushbu texnologiyani qo'llash sharoitida istalgan vaqtda yuk tashish yo'nalishini, uning joylashgan joyini kuzatish va tranzit kechikish sababini aniqlash mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, blokcheyn texnologiyasini joriy etish transport xizmatlari bozorida raqobatni kuchaytirishi va monopoliyani kamaytirishi mumkin. Agar yuk jo'natuvchi blokcheyn texnologiyasi orqali yuk tashish bo'yicha so'rov yuborsa, eng qisqa marshrut va minimal yetkazib berish muddatini ta'minlovchi eng samarali tashuvchi avtomatik tarzda tanlanadi. Shunday qilib, logistika xizmatlari ko'rsatishga kichikroq kompaniyalarning jalb etilishi ortadi.**
- Akkreditiv bo'yicha hisob-kitoblar.** Blokcheyndan akkreditiv hisob-kitoblarda ham foydalanish mumkin. Aqli shartnomalar operatsiyalari bo'yicha xaridorlar va sotuvchilar to'lovlar uchun blokcheynda hisob varaqalari ochadilar. Aqli shartnomalar blokcheyn tizimida akkreditiv bo'yicha to'lov qoidalari kodlaydigan emitent banklar tomonidan yaratiladi va qo'llaniladi. Barcha aqli shartnomalar operatsiyalari blokcheynda ro'yxatga olinadi va shifrlash yordamida imzolanadi. Bank va yuk tashish kompaniyasi tasdiqnomani imzolaganidan keyin mablag'lar avtomatik ravishda bank hisob varaqlariga o'tkaziladi.

Shunday qilib, blokcheyn logistika xizmatlari samaradorligini oshiradigan ko'plab potentsial ilovalarga ega bo'lgan istiqbolli texnologiya hisoblanadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrda "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni.
- Бубнова Г.В., Лёвин Б.А. Цифровая логистика инновационный механизм развития и эффективного функционирования транспортно логистических систем и комплексов. International Journal of Open Information Technologies. 2017, №3, 72-77 pp.
- Василенок В.Л., Круглова А.И., Алексашкина Е.И., Негреева В.В., Пластунова С.А. Основные тренды цифровой логистики // Научный журнал НИУ ИТМО. Серия: Экономика и экологический менеджмент. – 2020. – № 1(40). – С. 69-78.
- Gulyamov S.S., Ayupov R.H., Abdullaev O.M., Baltabaeva G.R. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. –T.: TMI, "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2019, 404 bet.
- Генкин А.С., Михеев А.А. Блокчейн: как это работает и что ждет нас завтра. М.: Альпина Паблишер, 2018. 592 с.



6. Капкин И.В., Пономарева Н.П. Анализ применения блокчейн-технологий в логистике. – 2021, 56-61 с.
7. Корчагин С.О текущих трендах в развитии технологии блокчейн / С. Корчагин // Свободная мысль. – 2016. – № 4 (1658). – С. 31-38.
8. Негреева В.В., Замятина А.А., Шпакович Д.К., Шаронова А.Д. Использование цифровых технологий в логистике. Научный журнал НИУ ИТМО. Серия Экономика и экологический менеджмент. 2020, №2. –94-102 с.
9. Нигматулин Т.А. Перспективы использования технологии блокчейн таможенными органами РФ / Т.А.Нигматулин, А.И.Краснова, А.А.Лавринович // Ученые записки Санкт-Петербургского им. В. Б. Бобкова Филиала Российской таможенной академии. – 2016. – № 4 (60). – С. 11-14.
10. Таска П. Блокчейн и финансовые риски // Цифровые валюты: принципы, тенденции, возможности и риски. ECUREX Tech Report 2015. Goethe University (Germany), 2016.
11. Щеголева Т.В. Цифровые технологии обеспечения надежности цепи поставок высокотехнологичного производства / Т. В. Щеголева, Е. Ю. Самаричева, А. А. Парамонова. – 2018. – С. 51-55.
12. Will Chu Carrefour extend Blockchain use to dairy and meat product ranges 08-Mar-2018 [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://www.foodnavigator.com/News/Business/Carrefour-extend-Blockchain-use-to-dairy-and-meat-product>. Дата доступа: 02.04.2019.

# Yashi

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 3**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

**Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

